

*Axrarov Baxtiyor Sagdullayevich,  
O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti,  
Toshkent, O‘zbekiston*

## **MEDIA SOHASIDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**Annotatsiya:** Maqolada media sohasida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari, ularni media kontentini yaratish jarayonida qo‘llash yo‘nalishlari tahlil qilingan. Ushbu yo‘nalishlar media materiallarini samarali, sifatli tayyorlash va tahlil qilish imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynashi, jumladan, neyron tarmoqlari inson aql-zakovati va professional tajribasini to‘ldiruvchi, ammo uning o‘rnini bosa olmaydigan vosita vazifasini bajarishi ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** **sun‘iy intellekt, neyron tarmoq, media kontent, innovatsion texnologiyalar, algoritm, yondashuv.**

*Axrarov Baxtiy r Sagdullaevich,  
Uzbekskiy gosudarstvennyy universitet mirovyyh yazykov,  
Tashkent, Uzbekistan*

## **ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СФЕРЕ МЕДИА**

**Аннотация:** В статье анализируются вопросы использования технологий искусственного интеллекта в сфере медиа, направления их применения в процессе создания медиаконтента. Показано, что эти направления играют важную роль в повышении возможностей эффективной и качественной подготовки и анализа медиаматериалов, в том числе роль нейронных сетей как инструмента, дополняющего, но не заменяющего человеческий интеллект и профессиональный опыт.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, нейронная сеть, медиаконтент, инновационные технологии, алгоритм, подход.

*Akhrarov Bakhtiyor Sagdullaevich,  
Uzbek State University of World Languages,  
Tashkent, Uzbekistan*

## **POSSIBILITIES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE MEDIA SPHERE**

**Abstract:** This article analyzes the use of artificial intelligence technologies in the media sphere, and their applications in media content creation. It demonstrates that these technologies play a significant role in enhancing the efficient and high-quality preparation and analysis of media materials, including

the role of neural networks as a tool that complements, but does not replace, human intelligence and professional experience.

**Keywords:** artificial intelligence, neural network, media content, innovative technologies, algorithm, approach.

Sun'iy intellekt hozirda jadal rivojlanayotgan innovatsion texnologiyalar sohasi deb e'tirof etilmoqda. Zamonaviy media sohasi ikki o'zaro bog'liq jarayon: to'liq raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal joriy etilishi natijasida yuzaga kelgan tub o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Global raqamlashtirish media sohasi ma'lumotlarining yangi formatlari paydo bo'lishiga, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish shakllarining o'zgarishiga va aloqa kanallarining tubdan qayta tuzilishiga olib kelmoqda.

Bunday sharoitda raqamli muhitda axborotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va yaratish uchun zarur bo'lgan kognitiv qobiliyatlar, amaliy ko'nikmalar majmuidan iborat intellektual media shaxsning professional muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvida asosiy omilga aylanmoqda.

Microsoft AI Iqtisodiyot Instituti hisobotiga ko'ra, 2025-yilning ikkinchi yarmida sayyoramizdagi har olti kishidan biri (16,3%) sun'iy intellektdan foydalangan. Ushbu holat yilning dastlabki olti oyiga nisbatan 1,2% ga ko'pligini bildiradi. Birlashgan Arab Amirliklari va Singapur davlatlari sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha yetakchilar qatorida bo'lib, mos ravishda aholining 70,1% va 63,4% neyron tarmoqlaridan foydalishi e'tirof etilgan. Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonda 7,2% ni tashkil etgan. 2026-yil 1-choragida 2025-yil 1-yarim yilligiga nisbatan sun'iy intellekt foydalanuvchilari ulushi mamlakatimizda 25,5 foizga oshgan [1].

Sun'iy intellekt tushunchasi 1956 yilda Dartmut kollejida (Gannover, Nyu-Xempshir shtati, AQSh) "Sun'iy intellekt bo'yicha yozgi tadqiqot loyihasi" nomli konferensiyada birinchi marta ishlatilgan bo'lib, unda ushbu tushunchaga Jon Makkarti tomonidan "aqli mashinalarni yaratish fani va texnologiyasi" sifatida ta'rif berildi. J.Makkarti fikricha, sun'iy intellekt - bu aqli mashinalarni, ayniqsa aqli kompyuter dasturlarini yaratish bo'yicha fan va muhandislik yo'nalishi [2].

**Sun'iy intellekt texnologiyalari - aqli kompyuter tizimlarini ya'ni, an'anaviy ravishda inson ongi bilan bog'laydigan imkoniyatlarga ega bo'lgan - tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqa shu kabi tizimlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan informatika sohasi [3, 3 b.].**

Ilmiy maqolalar va adabiyotlarda neyron tarmog'i tushunchasiga berilgan ta'riflarning ko'plab talqinlarini uchratish mumkin, masalan:

"Neyron tarmog'i - bu parallel ravishda ishlaydigan ko'plab oddiy hisoblash elementlaridan iborat tizim. Tarmoqning ishlashi natijasi tarmoq tuzilishi, ulanishlarning mustahkamligi va har bir element tomonidan bajariladigan hisoblash turi bilan belgilanadi" [4, p.60].

"Neyron tarmog'i - bu kiruvchi ma'lumotlardan mustaqil ravishda kerakli ma'lumotlarni ajratib olishga qodir bo'lgan parallel, taqsimlangan protsessorlar majmui. Bunday tarmoqning ishlashi miyaning ishlashiga o'xshaydi, chunki bilimlar o'qitish jarayoni orqali olinadi va olingan bilimlar bitta elementda saqlanmasdan, butun tarmoq bo'ylab taqsimlanadi" [5, p.26].

"Neyron tarmog'i - bu ko'p sonli oddiy hisoblash elementlaridan iborat tizim. Har bir element ishining natijasi faqat uning ichki holatiga bog'liq. Barcha elementlar bir-birlaridan mustaqil ravishda, ya'ni boshqa elementlar bilan sinxronlashtirmagan holda ishlaydi" [6, p.11].

"Sun'iy neyron tarmoqlari – bu bilimlarni qabul qilish, saqlash va ulardan foydalanishga qodir tizimlardir" [7, p. 96].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'atida ushbu atamaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Neyron tarmog'i - bir-biri bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan nerv hujayralari yoki ularning harakatlarini modellashtirayotgan tarkibiy qismlardan tashkil topgan tarmoq. Neyron tarmoqlari sun'iy intellektda inson miyasi faoliyatini modellashtirish uchun o'rganiladi. Ushbu tarmoq miya kabi ko'pgina kiruvchi signallaridan parallel tarzda ta'sirlanuvchi bir-biriga bog'langan neyronlardan tashkil topgan. Odatda neyron tarmog'i avvalo ko'p hajmdagi ma'lumotlar yoki ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi qoidalarini o'rganadi" [8, 207 b.].

Biroq, ko'pchilik tadqiqotchilar neyron tarmoq bir nechta oddiy protsessorlardan iborat tizim ekanligini e'tirof etadilar, ularning har biri o'zining mahalliy xotirasiga ega. Ushbu xotiraning tarkibi odatda protsessor holati deb ataladi. Protsessorlar bir-birlari bilan raqamli ma'lumotlarni almashish imkoniyatiga egalar. Protsessor ishining natijasi faqat uning holatiga va u qabul qiladigan kiruvchi ma'lumotlariga bog'liq.

Media sohasida sun'iy intellektni qo'llash deganda neyron tarmoqlaridan foydalanib kontent yaratish, uni qayta ishlash jarayonlari mazarda tutiladi. Sun'iy intellektni media sohasida qo'llash axborot yaratish va undan foydalanish jarayonlarini – avtomatlashtirilgan tarzda matn va video yaratishdan tortib, shaxsiylashtirilgan maqolalar oqimlari va aqlli tahrirlashgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi

Sun'iy intellektning yo'nalishi bo'lgan neyron tarmoqlari media sohasida kontent yaratish, uni shaxsiylashtirish va tarqatish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ushbu transformatsiyaning markazida inson miyasining axborotni qayta ishlash modellarini taqlid qiluvchi neyron tarmoqlari yotadi. Ushbu tarmoqlar media kompaniyalariga ilgari erishib bo'lmaydigan

darajadagi analitik xulosalarni juda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali chiqarish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida kontent yaratish, shu jumladan jurnalistika sohasida maqola materiallariga doir axborot to'plashdan tortib, yangi materiallar uchun g'oyalar va birlamchi ma'lumotlar yaratishgacha bo'lgan jarayonlarga faol integratsiya qilinmoqda.

Neyron tarmoqlari ilgari ko'p vaqt talab qiladigan audio materiallardagi tovushni matnga almashtirish, matndagi xatoliklarni tekshirish, to'plangan ma'lumotlarni tasniflash kabi vazifalarni bajara oladi.

Tahririyat xodimlari muntazam ravishda katta hajmdagi matnlar: tadqiqot ma'lumotlari asosida analitik tahlil, ilmiy hisobotlar va muhokamalar mazmunlari bilan ishlashlari kerak. Ushbu holatlarda matndagi asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatishda neyron tarmoqlari yordamga keladi. Algoritmalar ma'lumotlarni mavzu bo'yicha (masalan, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat) toifalarga ajratib, saralash, asosiy manbalarni aniqlash va materiallar orasidagi bog'liqliklarni aniqlashi mumkin.

Neyron tarmoqlari nafaqat nutqni matnga aylantirishi, balki materialni mazmun nuqtai nazaridan semantik bloklarga ajratishi ham mumkin. Bu esa matnni tayyorlash jarayonini tezlashtiradi va muharrirlarga tegishli yangiliklar hamda materiallarni tezda nashr etish imkonini beradi.

Neyron tarmoqlari shuningdek, minglab ommaviy axborot vositalari nashrlarini qayta ishlashi, takrorlanuvchi mavzularni aniqlashi va yangiliklar tendensiyalarini kuzatishi mumkin. Bu esa tahririyat guruhlariga dolzarb voqealarga tezroq javob berishda yordam beradi. Masalan, ma'lum bir mavzuga qiziqish ortib ketganda, sum'iy intellekt uning manbalarini aniqlashi, mavzuga oid fikrlarini tahlil qilishi va kop sonli auditoriya qiziqishining asosiy jihatlarini aniqlashi mumkin.

Yirik media kompaniyalari ushbu texnologik imkoniyatlardan foydalanmoqdalar: Masalan, 2023-yil mart oyida Bloomberg media kompaniyasi moliya sanoati uchun maxsus noldan yaratilgan 50 milliard parametrli katta til modeli bo'lgan BloombergGPT ni taqdim etdi. U katta hajmdagi moliyaviy yangiliklar va bozor ma'lumotlarini tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish uchun mo'ljallangan [9].

Neyron tarmoqlari yangiliklar, press-revizlar va dayjestlarni tayyorlash jarayonini soddalashtiradi. Bu jurnalistlarga asosiy matnni tezda yaratishda yordam beradi, tayyorgarlik vaqtini qisqartiradi, yakuniy tahrirlash va tahlil qilishlariga ko'proq e'tibor qaratadi. Ushbu holat jurnalistlarga "bo'sh sahifani qanday to'ldirsam ekan?" qabilidagi qo'rquvini yengishlarida yordam beradi.

Biroq, chuqur tajriba talab qiladigan ilmiy maqolalar, murakkab statistikaga oid analitik materiallar yoki ixtisoslashgan tadqiqotlar uchun kontent yaratishda sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ma'lumotlarga tanqidiy nuqtai nazar bilan

yondashish kerak. Xususan, Rossiya Oliy Iqtisodiyot Maktabining IQ Media — ommaviy axborot vositasi tomonidan tayyorlanadigan ilmiy dalillarga asoslangan barcha maqolalari mutaxassis ekspertlar tomonidan yoziladi yoki taqrizdan o‘tkazilib, tasdiqlanadi [10].

Neyron tarmoqlari maqsadli auditoriya va kontent formatiga mos keluvchi sarlavha nomlarini taklif qilishi, shuningdek, maqolalar, infografika va videolar uchun avtomatik ravishda tafsilotlarni yaratishi mumkin. Masalan, 2019-yilda Forbes yangiliklarni tahlil qiladigan, mualliflarga tegishli mavzular va sarlavhalarni taklif qiladigan Bertie AI platformasini joriy etgan [11].

Sun’iy intellekt illyustratsiyalar, infografika materiallarini yaratishi va hatto video kontent uchun syujetlarni taklif qilishi mumkin. Bu esa murakkab ma’lumotlarni vizual tarzda taqdim etish imkonini beradi va auditoriyaning qiziqishini oshiradi. OpenAI kompaniyasi tomonidan yaratilgan matn asosida tasvirni generatsiya qilishning DALL-E 2 neyron tarmog‘i yordamida 2022-yilda Cosmopolitan nomli Amerika ayollar modasi va ko‘ngilochar jurnali muqovasi ilk bor jurnal muharrirlari, OpenAI xodimlari va raqamli rassom Karen H. Cheng bilan hamkorlikda yaratildi [12].

Ijtimoiy tarmoqlar uchun bannerlar, illyustratsiyalar yaratishda neyron tarmoqlariga bo‘lgan ehtiyoj va talab yuqori. Auditoriya illyustrativ janrdagi xabarlarga ko‘proq e’tibor qaratadi. Shuning uchun vizual tasvirlar yetkazmoqchi bo‘lgan kontent mazmuni va xabarga mos kelishi juda muhimdir.

Shunday qilib, neyron tarmoqlari inson aql-zakovati va professional tajribasini to‘ldiruvchi, ammo uning o‘rnini bosa olmaydigan vosita vazifasini bajaradi.

Neyron tarmoqlari takomillashib bormoqda, ammo ularda tanqidiy fikrlash qobiliyati yo‘q. Shuning uchun ular xato qilishlari va onlayn ma’lumotlarni har doim ham to‘g‘ri talqin qila olmasliklari mumkin. Ushbu holat, ayniqsa, chuqur kontekstual tahlilni talab qiladigan murakkab mavzular bilan ishlashda yuzaga keladi. Shuning uchun jurnalistlar maqolalar tayyorlashda faqat algoritmlarga tayanmasliklari muhimdir. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan ma’lumotlar ishonchliligi va kontent mavzusiga mos kelishi chuqur tekshirilishi kerak. Shuning uchun media sohasida mutaxassis xodimlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Media sohasida sun’iy intellektning kelajagi neyron tarmog‘i modellarining sifatiga va jurnalistlarning ulardan foydalanishlaridagi yondashuvlarga bog‘liq bo‘ladi. Sun’iy intellekt keng tarqalgan vositaga aylanishi kuzatiladi, ammo u “jonli” mualliflarning o‘rnini bosa olmaydi. Sababi, neyron tarmoqlari soha kasbining asosini tashkil etuvchi tanqidiy fikrlash, mulohaza yuritish va hissiy sezish kabi fazilatlarga qodir emas. Shuning uchun har qanday ijodiy qarorlar qabul qilish inson zimmasida bo‘lib qolaveradi. Bunda media sohasidagi kadrlarning intellektual salohiyati va kompetensiyalarini rivojlantirish muhim

ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiyalar quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

– raqamli savodxonlik: kontentni qidirish, tekshirish va yaratish uchun raqamli vositalardan samarali foydalanish qobiliyati;

– ijodiy qobiliyati: keng ko‘lamli media muhitida axborotni taqdim etishning yangi formatlari va yondashuvlarini ishlab chiqishda kreativlik;;

– tanqidiy fikrlash: ma‘lumotlarni tahlil qilish va ularning ta‘siri, soxta va yashirin ma‘nolarni aniqlash qobiliyati. Bu, ayniqsa, sun‘iy intellekt ishonchli, ammo yolg‘on kontent yaratishi mumkin bo‘lgan muhitda muhimdir;

– refleksiya va motivatsiya: o‘zining ijtimoiy mas‘uliyatini anglash va o‘z-o‘ziini rivojlantirish hamda yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga doimiy intilish.

Kelgusi tadqiqotlar media sohasida sun‘iy intellektni integratsiya qiluvchi maxsus metodologiyalar va ta‘lim standartlarini ishlab chiqishga, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida intellektual texnologiyalardan foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy asoslarni yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Faqat shu yo‘l bilan jamiyat manfaati uchun sun‘iy intellektning ulkan salohiyatidan foydalanish va shu bilan bog‘liq xavf-xatarlarni minimallashtirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Microsoft-AI-Diffusion-Report-2026-Q1.

URL:<https://github.com/microsoft/ai-diffusion-report/blob/main/reports/Microsoft-AI-Diffusion-Report-2026-Q1.pdf>

2. McCarthy, John. (2007) What is Artificial Intelligence? Available at: <http://jmc.stanford.edu/articles/whatisai/whatisai.pdf>

3. The handbook of artificial intelligence. Vol. 1. Avron Barr and Edward Feigenbaum, William Kaufman, Inc., Los Altos, Calif., 1981, 409 pp, ISBN 0-86576-005-5.

4. DARPA (1987-1988) Neural Network Study (U.S.). Published by AFCEA International Press, a Division of the Armed Forces Communications and Electronics Association 4406 Fair Lakes Court Fairfax Virginia 22033-3899 USA. 629 p.

5. Haykin S. Neural Networks: A Comprehensive Foundation. NY: Macmillan, 1994, 696 p.

6. Nigrin A. Neural Networks for Pattern Recognition. Cambridge, MA: The MIT Press, 1993. 385 p.

7. Zurada J.M. Introduction To Artificial Neural Systems. Boston: PWS Publishing Company, 1992. p.764.

8. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. UNDP Digital Development Initiative Programme, 2004, 499 bet.

9. Introducing BloombergGPT, Bloomberg’s 50-billion parameter large language model, purpose-built from scratch for finance. URL:

<https://www.bloomberg.com/company/press/bloomberggpt-50-billion-parameter-llm-tuned>

10. IQ Media — для тех, кто проектирует себя. URL: <https://iq-media.ru/about>

11. All about 'Bertie': Overhauling CMS technology at Forbes. URL: <https://www.ciodive.com/news/all-about-bertie-overhauling-cms-technology-at-forbes/554871/>

12. Cosmopolitan Used DALL-E 2 AI to Generate a Magazine Cover  
URL: <https://80.lv/articles/cosmopolitan-used-dall-e-2-ai-to-generate-a-magazine-cover>